

O'ZBEK TILI FONETKASI VA FONOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXIDAN

Narziyeva Nazokat Abdurasulovna

SamDChTI akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistikaning fonetika va fonologiya bo'limi hamda uning o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tilshunosligi, fonetika, fonologiya, fonetik o'zgarishlar, vokalizmi, konsonantizm.

Ma'lumki, har qanday til sathining asosiy bo'limlaridan biri fonetika hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ham bu sohaning o'rganilishi qadim tarixga ega. Xususan, buyuk bobokolanamiz Abu Ali ibn Sinoning XI asr boshlarida umumiy fonetika masalalariga bag'ishlangan "Nutq tovushlari hosil bo'lishining sabablari"[1] nomli risolasi shu sohaning dastlabki tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Bu ilmiy risola O'rta Osiyo xalqlarining arab tilidagi kitoblarini to'g'ri o'qishi va arab tili talaffuzini osonroq, tezroq o'zlashtirishga ko'maklashishi uchun yozilgan. Asarda nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovor. Eng muhimi, risoladagi ma'lumotlar bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, u nafaqat o'zbek tilshunosligida, shu bilan birga jahon tilshunosligida ham fonetika sohasining tadqiqida muhim qo'llanmalardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligi fonetika va fonologiya sathining rivojida muhim o'rin tutadigan ilmiy asarlardan biri Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridir. Solih Mutallibov asarga yozgan so'zboshisida bu haqda shunday fikrlarini bildiradi: "M.Koshg'ariy o'z davrining yirik fonetik olimi edi. U o'z asarida fonetkani maxsus bo'lim sifatida izohlamagan. Chunki asar strukturasi uni talab qilmagan. Lekin M.Koshg'ariyning zarur o'rinlarda yo'l-yo'lakay bergan fonetik uqtirishlarida u davr tili fonetikasi ancha keng izohlangan. "Devonu lug'otit turk" ustidagi kuzatishlarimizga ko'ra

M.Koshg'ariy har bir tovush ustida maxsus tekshirish olib borgan va tilda bo'lgan har bir tovushni to'la ilmiy asosda o'rgangan. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini, fiziologik va akustik holatlarini aniqlab chiqdi. Uning bu sohadagi chidamli mehnati, bir tarafdin, juda ko'p so'zlar etimologiyasini fonetik qonunlar orqali puxta ilmiy asosda aniqlashga imkoniyat yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, o'sha davr tilshunosligida fonetikaga xos ko'pgina yangiliklarni ochishga, bu sohaga bir qancha yangiliklar qo'shishga, fonetikani bir qancha yangi qoidalar bilan boyitishga imkoniyat yaratdi. Tovush va harflar munosabatini birinchi marta u aniqladi..." [5, 21]

Haqiqatan ham, mazkur asarni o'rganar ekansiz, uning "Turk tilining xususiyatlari haqida" qismida turkiy tillar va uning lahjalari o'rtasidagi fonetik farqlar, fonetik o'zgarishlar haqidagi fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir. O'g'uz (qipchoq)lar و (yoy) bilan boshlangan ot va fe'larning bosh harfini alifga (ا) yoki jimga ج aylantiganlar. Xususan, turklar, dur marvaridni *yinju* desalar, o'g'uz *inju* deydilar, turklar tuyaning uzun yungini *yug'du* desalar, ular *jug'du* deydilar [5, 67]. Umuman, ushbu qimmatli asar turkiy tillarning, shu bilan birga, o'zbek tili fonetik sathining taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

O'zbek tilshunosligida tilning fonetik tizimini tadqiq etgan tilshunoslardan biri, so'zsiz, Alisher Navoiydir. U o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida, birinchidan, harf va tovush munosabatlariga, ikkinchidan, tovushlarning (hozirgi tilshunoslikda fonema deb atalayotgan til birliklarining) sifat va miqdor belgilariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, u vov (و , و) harfining lablangan u va o' fonemalarini alohida-alohida ma'no farqashga xizmat qilayotganligini xarakterli misollar orqali keltiradi: "tuz lafziki, necha ma'ni ifoda qilsa bo'lur. Biri tuzki, o'q yo nayzadek nimani derlar. Yana tuz – hamvor dashtni derlar. Yana tuz – rost kishini derlar. Yana tuz – sozni tuzmakka amr qilmog'ni, yana tuz – ikki kishi orasida muvofiqat solmog'ni (derlar)". Yana tuz – bir majlis asbobini ham desa bo'lur. Bunda olim tuz (tekis dasht) – tuz (rost kishi) – tuz (sozni tuzmoqqa amr qilmoq); to'r (tuzoq, til orqa) – to'r (uyning to'ri, til oldi) [2,113-114] kabi so'zlar tarkibida unlilarning ingichka yoki yo'g'on, cho'ziq yoki qisqa talaffuz etilayotganligini ham aytadi. Muallifning bu fikri fonemalarning old qator va orqa qator, cho'ziq va qisqa kabi belgilari eski o'zbek tilida fonologik qiymatga ega bo'lganligidan darak beradi.

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy harf bilan tovush boshqa-boshqa hodisalar ekanligini, tovushlarning so‘zlarni moddiy jihatdan shakllantirish va farqlash vazifalarini XV asrdayoq (G‘arb tilshunoslaridan ancha oldin) aytib o‘tgan. Bu uning fonologiyaga oid ayrim hodisalarning ilk tadqiqotchisi bo‘lganligidan dalolat beradi [4,73].

Shu bilan Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida ham fonetikaga daxldor ayrim fikrlari keltirilgan. Masalan, kashmir toponimi *kas* etnonimi asosida yuzaga kelganligi haqidagi fikri, “*norgil*ni arab muarrab qilib *norjil* der, Hindiston eli *nolir* deydur”, - deyishi ham fonetik alternatsiya qonuniyatiga daxldorligi bilan e‘tiborga loyiqdir [3,262].

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya sathining o‘rganilishi ham katta davrga ega.

Shuni ta’kidlash lozimki, XX asr tom ma’noda o‘zbek tilshunosligining yuksalishi davri hisoblanadi. O‘tgan asrning 20-30- yillarida Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Evgeniy Dmiterevich Polivanov, Elbeklar; 1940-1960- yillarda o‘zbek adabiy tili vokalizmi va konsonantizmining anatomik-fiziologik, akustik va lingvistik-funksional jihatlarini tadqiq etishda A. Mahmudov, S.Otamirzayevalar; 1970-1990-yillarda A.Abduazizov, N.A.Baskakov, A.Sodiqov, A.Mahmudovlar; mustaqillik davrida esa H.Jamolxonov, Dildora Nabiyeva, Dilfuza Nurmonovalarning bu sohadagi xizmatlari kattadir.

Umuman olganda, bu soha tadqiqi barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalarda, til tarixi va dialektologik materiallarda o‘rganilib kelinayotgan asosiy tilshunoslikning bo‘limlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу али ибн Сино Фонетика ҳақида рисола (Нутқ товушлари ҳосил бўлишининг сабаблари). – Тошкент, 1979. – 22 б., (Таржимонлар: Қ.Маҳмудов ва Анвар Маҳмудов).
2. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик, 14-том. – Тошкент, 1967.
- 3.Вобур. Бобурнома. – Тошкент, 1990.

- 4 . Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. - Тошкент, 2009.
5. Маҳмуд Кошғарий Девону луғотит турк I том. – Тошкент, 1960.